Xolmirzayev Baxtiyor Nurmirza o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail: bakhtiyork@gmail.com

YOSH VATANPARVAR SPORTCHI TO‘GARAGI ORQALI O‘QUVCHILARNING MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12618175

Annotatsiya. O‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish yo‘lida “Yosh vatanparvar sportchi” to‘garak dasturi ishlab chiqildi va dastur asosida to‘garak tashkil qilinib, o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlanishiga erishildi.

Kalit so‘zlar: milliy g‘urur, izchil, barqaror, ilmiy-tadqiqot, sport, irodalilik, g‘alabaga intiluvchanlik, chaqqonlik, xarakter, faxr, iftixor, trening.

Respublikamizning umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, o‘quvchilarda akmeologik yondashuvlar asosida milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish jarayonida kamolotga erishishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, o‘zlarida irodaviy sifatlarni shakllantirish yo‘lida qat’iyat ko‘rsatish, o‘z-o‘zini tarbiyash, ijobiy sifatlarni yanada boyitishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq. Biz bu yo‘nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e’tibor berishimiz zarur” [6, 257-bet]. O‘quvchilarning irodalilik, g‘alabaga intiluvchanlik, chaqqonlik, o‘zini tuta bilish, chidamlilik kabi sifatlarning rivojlanishi jismoniy tarbiya va sport faoliyatining pedagogik-psixologik ta’lim samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarda sportchiga xos xarakter xislatlari rivojlanib, so‘ng bu xislatlar uning doimiy xarakteri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirishda bevosita ma’naviy-axloqiy, jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son, 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport-ta’lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” PQ-5280-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son Farmonlari, 2019-yil 13-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining “2019-2023-yillar davrida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-son Qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi[1; 2; 3; 4; 5].

O‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat mohiyatini yoritishda g‘urur so‘zi - faxr, iftixor, faxrlanish, mag‘rur, quvonch, quvonish kabi ma’nolarni anglatadi [7, 12-bet]. Mumtoz she’riyat va nasrlarda, faxriya, ballada va dostonlarda, xalq og‘zaki ijodida ham yuqoridagi so‘zlar ma’nodosh (sinonim) laridan foydalanilgan.

Ba'zan g'urur so'zi kibrlanish, kibru havo, gerdayish, o'ziga bino qo'yish, manmanlik singari ma'nolarni ham tashiydi. Biz ijobiy ma'nodagi g'urur haqida fikr yuritamiz.

Milliy g'urur muayyan millatning tarixiy o'tmishidan, milliy qadriyatlaridan, jahon miqyosida asrlar osha tan olinib kelinayotgan fan, din, adabiyot, san'at va madaniyat yutuqlari va ularni yaratgan daholardan, tarixiy obida va yodgorliklaridan, milliy urf-odatlariyu, an'analaridan, ota-Vatanidan, dono xalqidan, Vatanining go'zal o'tmishi va bugunidan, milliy xalq qahramonlaridan faxrlanish va iftixor qilish tuyg'usidir.

Darhaqiqat, "Milliy g'ururisiz hech bir millat millat sifatida ravnaq topolmaydi".

O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish ularda vatanparvarlik, Vatan va millat taraqqiyotini ta'minlovchi ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. O'quvchilarni milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash hamda milliy iftixor tuyg'ulariga ega bo'lishi milliy mustaqillikni mustahkamlash, jamiyat ravnaqi va millat taraqqiyotini tahminlashga xizmat qiladi. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarga "milliy g'urur", "milliy o'zlikni anglash" va "milliy iftixor" tushunchalari to'g'risida ma'lumotlar berish, ularda bu kabi sifatlarning rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilarida umumiy jismoniy tayyorgarlik hamda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish asoslari to'g'risida so'z yuritiladi.

Dastur g'oyalari umumiy o'rta ta'lim muassasalarida to'garak orqaliy (o'quv-mashg'ulot) seminar-trening, amaliy, seminar sifatida o'quvchilarga yetkazib beriladi. Mashg'ulotlar jami 102 soatga mo'ljallangan. Shundan, 3 soati seminar-trening mashg'uloti, 95 soati amaliy mashg'uloti, 4 soati seminar mashg'ulotlari tarzida olib boriladi.

O'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik hamda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari, futbol, milliy kurash, harakatli o'yinlar, xalq o'yinlari, yakka kurash sport turlari va milliy g'ururni rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik xususiyatlar, ustivor tamoyillar, zamonaviy texnologiyalar, baholash mezonlari, xalq og'zaki (folklor) ijodiyoti, mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotlari, xalq qahramonlari va sportchilaridan foydalanildi.

Ishlab chiqilgan dastur asosida o'quvchilarga to'garak jarayoni olib borildi. Ularda milliy g'urur tuyg'usini qay darajada

Mavzularning soatlar bo'yicha taqsimoti:

№	Mavzularning nomi va ajratilgan vaqti	Dars shakli (seminar-trening, amaliy, seminar)	Mashg'ulot vaqti	Mashg'ulot bo'limi nomi	Nazariy bilimlar va o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini rivojlanishidagi adabiyotlar
1.	Gimnastika, yengil atletika, sport o'yinlari (30 minut)	Seminar-trening jarayonida	1	Gimnastika Yengil atletika Sport o'yinlari	Dars jarayonida xalq og'zaki (folklor) ijodiyoti; mumtoz adabiyotlar; zamonaviy O'zbek adabiyotlari; xalq qahramonlari va sportchilar…
	Milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish-ijtimoiy pedagogik muammo ekanligi, pedagogik-psixologik xususiyatlari, ustivor tamoyillari (30 minut)			Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	

2.	Futbol, kurash, harakatli o‘yinlar (30 minut) Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning mazmun va mohiyati, texnologiyasi va modeli	Seminar-trening jarayon-ida	**1**	Futbol Kurash Harakatli o‘yinlar Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning mazmuni, innovatsion shakli, metodlari va vositalari	Dars jarayonida xalq og‘zaki (folklor) ijodiyoti; mumtoz adabiyotlar; zamonaviy O‘zbek ada-biyotlari; xalq qahramonlari va sportchilar…
3.	Xalq o‘yinlari, yakka kurash (karate) (30 minut) O‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda baholash mezonlarining ahamiyati (30 minut)	Seminar-trening jarayon-ida	**1**	Xalq o‘yinlari Yakka kurash(karate) Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishga doir tajriba sinov ishlari	Dars jarayonida xalq og‘zaki (folklor) ijodiyoti; mumtoz adabiyotlar; zamonaviy O‘zbek ada-biyotlari; xalq qahramonlari va sportchilar…
4.	Butun tana uchun mashqlar. Saf mashqlari (45 minut) Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish-pedagogik muammo sifatida (15 minut)	Amaliy dars ja-rayonida	**1**	Gimnastika Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	Dars jarayonida xalq og‘zaki (folklor) ijodiyoti; mumtoz adabiyotlar; zamonaviy O‘zbek ada-biyotlari; xalq qahramonlari va sportchilar…
5.	…	…	…	…	…
99.	Gimnastika, yengil atletika, sport o‘yinlari (30 minut) Milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish-ijtimoiy pedagogik muammo ekanligi, pedagogik-psixologik xususiyatlari, ustivor tamoyillari (30 minut)	Seminar dars ja-rayonida	**1**	1. Gimnastika 2. Yengil atletika 3. Sport o‘yinlari	Dars jarayonida xalq og‘zaki (folklor) ijodiyoti; mumtoz adabiyotlar; zamonaviy O‘zbek ada-biyotlari; xalq qahramonlari va sportchilar
100.	Futbol, kurash, harakatli o‘yinlar (30 minut) Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning mazmun va mohiyati, texnologiyasi va modeli	Seminar dars ja-rayonida	**1**	1. Futbol 2. Kurash 3. Harakatli o‘yinlar Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning mazmuni, innovatsion shakli, metodlari va vositalari	Dars jarayonida xalq og‘zaki (folklor) ijodiyoti; mumtoz adabiyotlar; zamonaviy O‘zbek ada-biyotlari; xalq qahramonlari va sportchilar…

rivojlanganligi baholash mezonlari orqaliy ifodalandi.

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, tajriba sinflarida nazorat sinflariga nisbatan sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish mezonlarining barchasi bo‘yicha sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

Mezonlar	Tajriba sinfi (203 nafar respondent)						Nazorat sinfi (201 nafar respondent)					
	yuqori		o‘rtacha		past		yuqori		o‘rtacha		past	
	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a.	T.s.	T.a	T.s.
Vatanni anglash	52	97	70	71	81	35	52	58	69	71	80	72
Milliy g‘urur	54	99	64	69	85	35	50	60	66	73	85	68
Vijdoniylik	50	95	68	68	85	40	48	56	70	72	83	73
Millatlararo muloqot madaniyati	52	97	69	72	82	34	52	58	67	73	82	70
Milliy odob-axloq	51	96	65	69	87	38	54	59	69	72	78	70
Mafkuraviy onglilik darajasi	53	98	66	72	85	33	52	57	67	71	82	73
Umumiy o‘rtacha	52	**97**	67	**70**	84	**36**	51	**58**	68	**72**	82	**71**

Xulosa. Shunday qilib, ta’kidlovchi tajriba bosqichida olingan natijalar to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish malakalariga (12,3 % ga) ega bo‘lganliklarini ko‘rsatdi. Bu holat o‘z navbatida ilmiy-pedagogik tajribani tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligining yorqin ifodasi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-sonli Farmoni // https //:lex.uz/docs

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-sonli Farmoni // https //:lex.uz/docs

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli Qarori // https://www.lex.uz/acts/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» PF-60-son Farmoni // https //:lex.uz/docs

5. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi “2019-2023-yillar davrida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 118-sonli Qarori // https:// www.lex.uz/acts/

6. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 257 b.

7. Abdullayev Muxammadimin Egamberdievich Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirish tizimi Avtoreferat . Farg‘ona 2022-y. 12 b.